



Muhandisning xatosimi
yoki...

3-betda o'qing ↘



Tuman hokimligidan
kompensatsiya undirildi

5-betda o'qing ↘

INSON va qonun

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

2023-YIL
28-MART
SESHANBA
№ 12 (1372)


www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!

QR code
"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



ЎЗБЕКИСТОН
РЕСПУБЛИКАСИНИНГ
КОНСТИТУЦИЯСИ

Yangi KONSTITUTSIYADA *yangi normalar*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini mam
lakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega,
to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy
makonning asosini tashkil qiladi.

Yangi tahrirdagi
Konstitutsianing 15-moddasi



Hech kimga uning ro
zilgisiz qonunchilikda bel
gilanmagan majburiyat
yuklatilishi mumkin emas.

Yangi tahrirdagi
Konstitutsianing
21-moddasi



O'zbekiston Respublika
si fuqarosi O'zbekistondan
tashqariga majburiy chiq
rib yuborilishi yoki boshqa
davlatga berib yuborilishi
mumkin emas.

Yangi tahrirdagi
Konstitutsianing 23-moddasi



Shaxs sudning qarorisiz qirq
sakkiz soatdan ortiq muddat
ushlab turilishi mumkin emas.
Shaxs ushlab turilgan payt
dan e'tiboran qirq sakkiz soat
o'tguniga qadar sudga ushlab
turishning qonuniyligi va asos
liliyi to'g'risidagi masalani hal
qilish uchun olib borilishi kerak.
Agar ushlab turishning qon
uniyligi va asosliliyi sudda is
botilanmasa, shaxs darhol ozod
qilinishi kerak.

Yangi tahrirdagi
Konstitutsianing 27-moddasi



Qonuniy asoslarda O'zbekiston Respublikasi
hududida bo'lib turgan har kim mamlakat bo'yab
erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tan
lash huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan
cheklovlari mustasno.

Har kim O'zbekistondan tashqariga erkin chiqish
huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan chek
lovlari mustasno. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi
O'zbekistonga to'sqiniksiz qaytish huquqiga ega.

Yangi tahrirdagi
Konstitutsianing 32-moddasi



Agar shaxsning o'z aybi
ni tan olganligi unga qarshi
yagona dalil bo'lsa, u aybdor
deb topilishi yoki jazoga tor
tilishi mumkin emas.

Yangi tahrirdagi
Konstitutsianing 28-moddasi

2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

APREL
01

1 apreldan nimalar o'zgaradi?



SUG'URTA XARAJATLARI QOPLAB BERILADI

PREZIDENTNING 2023-yil 10-fevral-dagi farmoniga muvofiq 2023-yil 1-apreldan:

- 1 yilda bir marotaba o'ta tadbirkorlik subyektlariga mol-mulkni sug'urta qilish xarajatlarining 50 foizigacha, biroq BHMning 20 baravaridan oshmagan (6 million so'mgacha) qismi qoqlab beriladi;
- daramodi 10 milliard so'mdan kam bo'limgan tadbirkorlar uchun davlat xaridlarida 20 foizlik kvota joriy etiladi;
- davlat xaridlarida eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolarida ishtirokchilar takliflarini baholashda QQS summasi inobatga olinmaydi.

"KEKSALAR MASLAHATI" GURUHLARI RAHBARLARI RAG'BATLANTIRILADI

Prezidentning 2023-yil 11-martdagi qaroriga muvofiq, "Nuroniy" jamg'arsasiga davlat subsidiyasini ajratish tizimi joriy etiladi. "Bir nuroniy o'n yoshga mas'u" tamoyiliiga muvofiq yoshlar

har bir mahalladagi faol nuroniylarga birkirtiriladi. Shuningdek, mahallalarda faoliyat yuritayotgan "Keksalar maslahati" guruhlari rahbarlari har chorakda BHMning 2 baravari, ya'ni hozirgi kunda 600 ming so'm miqdorida rag'batlantirib boriladi.



HALOK BO'LGAN HARBIY XIZMATCHI OILASIGA TO'LANADIGAN NAFQA MIQDORI

Prezidentning 2023-yil 13-martdagi farmoniga ko'ra:

- halok bo'lgan harbiy xizmatchi (xodim) oila a'zolariga bиро'ла beriladigan nafaqa marhumning oxirgi egallagan lavozimi bo'yicha maoshi va harbiy (maxsus) unvoni maoshi yig'indisining 150 baravari miqdorida belgilanadi;
- harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi doirasida harbiy xizmatchi (xodim) halok bo'lгanda to'lanaqidan sug'urta summasi BHMning 200 baravari miqdorida belgilanadi.



PENSIONERLAR METRODAN BEPUL FOYDALANADI

Prezidentning 2023-yil 15-martdagi qaroriga áosasan, Toshkent metropolitenining to'liq faoliyat ko'satishi vaqt davomida pensiya oluvchilarga bepul xizmat ko'satiladi. Ilgari pensionerlar o'zlarining pensiya guvohnomasiga asosan kunduzi saat 10:00 dan 16:00 gacha Toshkent metropolitenida bepul harakatlanishi mumkin edi.

NOGIRONLIK ELEKTRON MA'LUMOTLARGA ASOSAN BELGILANADI

Prezidentning 2023-yil 28-fevraldaggi farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturiga asosan:

- yangi maktabgacha ta'lrim tashkilotlari faoliyatini ko'p kvartirali uylarning noturar qavatlari da yoki yakka tartibda qurilgan uy-joylarni sotib olish va keyinchalik ularni ta'mirlash hamda jihozlash orqali tashkil etishga ruxsat etiladi;
- nogironlik idoralararo elektron ma'lumotlar almashinuvni asosil

da nogironlik belgilari aniq ko'rib-nur turgan, anatomik nuqsонlari bo'lgan, shuningdek, noxush klinik prognozga ega kasalliklar va asoratlarda fuqarolarning ishtirokisiz belgilanadi;

- professional ta'lrim muassasi pedagoglarining bazaviy tarif stavkalarini mos ravishda umumiy o'ta ta'lrim muassasasi pedagoglarining bazaviy tarif stavkalariga tenglashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga doir tasdiqnomasi amal qilish muddati davomida chet el fuqarolari xorijdan olib keligan shaxsiy avtovoztransport vo'sitasini olib chiqib ketish muddatini uzrli sabablarga ko'ra o'kazib yuborganda, qonunchilik hujjatlari belgilangan yig'lmuni to'lashdan ozod etiladi.

MAJBDIY ATTETATSİYAGA JALB ETILMAYDİGAN XODİMLAR

Hukumatning 2023-yil 23-martdagii qaroriga muvofiq, quydigilar majbdiy attestatsiyaga jalb etilmaydi:

- pedagogik faoliyat bo'yicha 25 yil va undan ko'p ish stajiga ega pedagog xodimlar;
- yoshga doir pensiyaga chiqishi uchun 5 yildan ko'p bo'limgan muddat qolgan pedagog xodimlar.

Maqsud MUSTAFOYEV,
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR ZAMONAVIY PROTEZ-ORTOPEDIYA BUYUMLARI BILAN BEPUL TA'MINLANADI



PREZIDENTIMIZNING "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan nafaqat nogironligi bo'lgan shaxslarga, balki ularning parvarishi bilan band bo'lgan shaxslariga ham bir qator yengilliklar berildi. Ya'ni, endiliikda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar va ularga g'amxo'rlik qiluvchilar davlat xizmatlariidan navbatsiz foydalananadi. Endi ular mansabdor shaxslar qabuliga ham navbatsiz kiradi.

Qarorga ko'ra, 2023-yilda muxtoj shaxslar zamonaivi oyoq protez-ortopediya buyumlar bilan, shu jumladan "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan va I guruh nogironligi bo'lgan shaxslar son protezi, boldir protezi va oyoq kamari ortoped apparatlarini bilan bepul ta'minlanadi.

2023-yil 1-sentabrdan nogironligi bo'lgan shaxslar protez-ortopediya moslamalari va rehabilitasiya vositalari bilan ta'mirlashda tibbiy xulosa talab qilinmaydi. Bu esa nogironligi bo'lgan shaxslarining ortiqcha ovragarchiliklarsiz va byurokratik to'siqlarsiz muholtligiga qarab kerakli moslamalarni olish imkoniyatiga ega bo'lishiga asos bo'ladi.

2023-yil 1-maydan shifoxonalarda davolanyotgan nogironligi bo'lgan bolaga g'amxo'rlik qilayotgan shaxslarga bolaning yonida bo'lish uchun sharoit yaratildi. Mazkur davr uchun bunday

shaxslarga mehnatga layoqatsizlik varaqasi va bepul ovqat beriladi. Pediatriya tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari bolani nogironligi bo'lgan shaxs deb topganda, ularga pensiya tayinlashda qaytadan tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga yuborish bekor qilinadi.


Qarorga ko'ra, 2023-yil 1-iyun-gacha nogironligi bo'lgan shaxslar va ularga g'amxo'rlik qiluvchilarga berilgan imtiyozlarning yagona ro'yxati shakkantiriladi. Mazkur ro'yxat Advice.uz huquqiy portaliga joylashtiriladi.

Muhimi, boshqalar bilan baravar ta'lim olib, o'z imkoniyatlaridan foydalananaman, degan nogironligi bo'lgan yoshlar uchun bir qator yengilliklar berilmoqda. Ya'ni, 2023/2024-o'quv yilidan e'tiboran o'qiyotgan nogironligi bo'lgan talabalarga ta'lim jarayonida ko'maklashish uchun uning yaqinlaridan biriga oliy ta'lim muassasasida yonida birga bo'lish

uchun sharoit yaratiladi. Abiturientlar uchun mo'ljalangan qabul tartibiga oid ma'lumotlar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay formatda bo'ladi. Bunda videoroliklar surdo tarjima yoki subtitrler bilan namoyish etiladi. 2023/2024-o'quv yilidan "Maxsus pedagogika, defektologiya" yo'nalishida magistratura uchun to'liq davlat granti beriladi.


Qaror bilan nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar rejasi ham tasdiqlandi. Mazkur hujjat Adliya vazirligi tashabbusi bilan ishlab chiqildi. Ushbu qaror nogironligi bo'lgan shaxslarning imkoniyatlari yanada kengayishiga imkoniyat yaratadi.

Nurya BERDINIYAZOVA,
Xo'jayli tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i



BUXORO tumanidagi "Kunji Qal'a" mahallasida yashovchi F. Gulamova kadastr xodimlarining xatti-harakatlaridan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

MUHANDISNING XATOSIMI YOKI...



Organish jarayonida murojaat muallifi marhum qaynotasi U. Avezov nomidagi o'zi yashab kelayotgan uy-joy yuzasidan qurilishi tugallangan bino-inshootlarni foydalanishga qabul qilish va kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish maqsadida 2022-yil 29-dekabrda tuman davlat xizmatlari markazi orqali ariza topshirganligi ma'lum bo'ldi.

Mazkur ariza tizim orqali Kadastrlar palatasi Buxoro filialiga 2022-yil 30-dekabrda kelib tushgan bo'lib, barcha tegishli hujjatlar tizimga yuklangan va uy-joyga kadastr pasporti rasmiylashtirilgan bo'lsa-da, filial kadastr muhandisi S. G'anievning xatosi tufayli kadastr pasportini shakllantirish uchun to'lovli tugma bosilgan.

Vaholanki, Vazirlar Mahkama-sining 2018-yil 29-dekabrdagi 1060-sonli qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomming 9-bandida belgilanganidek, Kadastr yig'majildini birlamchi shakllantirishda ko'chmas mulk obyektlari davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan joyiga chiqib xatlovdan o'tkaziladi. Kadastr yig'majildini shakllantirish natijalari bo'yicha kadastr pasporti beriladi.


Kadastr pasportini berish tartibi va shakli Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Ko'chmas mulk obyektlining kadastr pasportini tayyorlash davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan jismoniy yoki yuridik shaxslarning buyurtmasi asosida amalga oshiriladi. Buyurtmalar internet tarmogi yoki davlat xizmatlari markazlari orqali qabul qilinadi.

Xullas, fuqaro F. Gulamovning telefon raqamiga kelgan sms xabarga binoan muallif tomonidan 2023-yil 5-yanvarda 745 ming so'm to'lov amalga oshirilib, ilgari rasmiylashtirilgan eski kadastr pasporti chiqarib berilgan. Bino-inshootlarni foydalananiga qabul qilish masalasi esa ochiq qolgan. Eski kadastr hujjati uchun yangi to'lov undirish muhandisning xatosimi yoki...

Yuqoridaq qonunbuzilish holatini bartaraf etish maqsadida Buxoro viloyat Kadastrlar palatasi rahbari nomiga adliya bo'limi tomonidan taqdimnomma kiritilib, muallifa 745 ming so'mlik ortiqcha to'lov qayta to'lab berildi.

Abdurahimxo'ja BAFAYEV,
Buxoro tuman adliya bo'limi boshlig'i



Hududlarda "Adliya mahallada" shiori ostida aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkintillari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan sayyor qabullar o'tkazilmoqda.




29 YILGA KECHIKKAN TUG'ILGANLIK GUVOHNOMASI

Andijon shahridagi "Sog'lom turmush" mahallasida yashovchi fuqaro S. O'lmasov shahar adliya bo'limiga murojaat qilib, 1994-yil 8-yanvarda tug'ilgan farzandi U. Tillanazarova ayrim sabablarga ko'ra tug'ilganlik haqidagi guvohnoma olinmagani ni bayon qilgan. Ayoli F. Tillanazarova 2019-yilda vatof etganini, farzandi tug'ilgan vaqtida o'zi boshqa yurdaga bo'lgani bois uning qayerda tug'ilganini bilmasligini va moddiy ohvoli qiyinligini, huquqiy yordamga muhatojligini inobatga olib sud taribida farzandining tug'ilganlik faktini belgilashda amaliy yordam so'ragan.

Mazkur holat o'rjanilganda U. Tillanazarov uy sharoitida tug'ilganligi sababli tug'ilganlik haqidagi guvohnoma olinmasdan qolganay bo'ldi. Shu boisdan, fuqarolik ishlari bo'yicha Andijon tumanlararo sudiga tug'ilganlik faktini belgilash haqida ariza kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan, fuqaroning zararli va og'ir ishlarda ishlaganlik fakti tasdiqlandi va unga imtirozli pensiya tayinlanadigan bo'ldi.

Axmey ALLAMURATOV,
Taxtako'pir tuman adliya bo'limi boshlig'i

Kamoliddin AMANOV,
Andijon shahar adliya bo'limi boshlig'i



ZARARLI ISHDA ISHLAGAN, AMMO IMTIYOZLI PENSIYAGA CHIQOLMAGAN

TAXTAKO'PIR tumanida yashovchi fuqaro A.K. tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, 1995-yildan 2022-yilga qadar Respublika vabo profilaktik markazi Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali Taxtako'pir tuman bo'limida turli lavozimlarda ishlaganligini, lekin Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Taxtako'pir tuman bo'limi attestatsiyadan o'tkazilgan mazkur ish joyining zararli va og'ir ishlardan qatoriga kiritilmaganini bildirib, yoshga doir imtirozli pensiya chiqarishni rad etganidan norozi bo'lib, ushbu masalada amaliy yordam so'ragan.

Aniqlanishicha, fuqaro haqiqatan ham, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tuman bo'limiga imtirozli pensiya chiqish uchun murojaat qilgan, lekin komissiya qaroriga

ko'ra, imtirozli pensiya olish huquqini beruvchi ayrim ish davrlari bo'yicha ish o'rni attestatsiyadan o'tkazilgan sababli, fuqaroga imtirozli pensiya tayinlash rad etilgan.


Vaholanki, Ozbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunida umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda imtirozli pensiya olish huquqiga mehnat sharoiti juda zararli va juda og'ir ishlafda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xo'dimlar - ayollar ish stajsi kamida 20 yil bo'lib, shundan kamida 10 yil ko'satilish o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan holatda ega bo'lishi belgilangan.

Ozbekiston Respublikasi Olyi sudi plenumining 2017-yil 29-novabrda "Davlat pensiya ta'minoti bilan bog'liq ishlardan bo'yicha sud amaliyoti

to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, ish o'rinalarining attestatsiyadan o'tkazganligi to'g'risidagi hujjatlar mavjud bo'lmaga, o'ta zararli va o'ta xavfli mehnat sharoitlarida ishlaganlik faktini belgilash haqidagi ishlardan suda ko'riliishi mumkin.

Shunga asosan, adliya bo'limi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Chimboy tumanlararo sudiga fuqaroning 1995-yildan 2022-yilga qadar zararli va o'ta og'ir ishdan ishlaganlik faktini belgilab berish haqida ariza kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan, fuqaroning zararli va og'ir ishlarda ishlaganlik fakti tasdiqlandi va unga imtirozli pensiya tayinlanadigan bo'ldi.

Axmet ALLAMURATOV,
Taxtako'pir tuman adliya bo'limi boshlig'i



ZARAR QOPLANDI



FUQARO A.S.ga xususiy mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan Qibray tumanidagi "Tashisti" mahallasi, Tuzel 2-berk ko'chasi 4-uy manzilida joylashgan uy-joyini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan to'lanmayotgan kompensatsiyani undirishda amaliy yordam berishni so'rabi, Sergeli tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

Aniqlanishicha, A. S.ning mulk huquqi Qibray tuman hokimligining 2019-yil 18-fevraldagi dalolatnomasi

hamda ushbu dalolatnomaga asosan chiqarilgan 2019-yil 28-martda qibray tuman hokimining qaroriga muvofiq vujudga kelgan bo'lib, kadastr hujjatlariga binoan yer maydoni 0.06 hektarni tashkil etgan. Biroq tuman hokimligi tomonidan yuqoridagi normativ-huquqiy hujjat talablariga zid ravishda shu kunga qadar olib qo'yilgan mulk uchun kompensatsiya to'lovlarini to'liq to'lanmagan.

Oliy Majlis Senatining 2021-yil 27-avgustdag'i tegishli qaroriga aso-

san Qibray tumanining "Tovkenttepa", "Tashisti", "Ibrat" mahalla fuqarolar yig'inlari Yashnabod tumaniga, "Jarboshi" MFY esa Mirzo Ulug'bek tumani hududiga o'tkazilgan.

Shunga ko'ra, tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaro A.S.ning manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga da've ariza kiritilib, 989 million 788 ming so'm miqdorida yetkazilgan zarar undirilishi belgilandi.

Jaloliddin HAYDAROV,
Sergeli tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

4 "MADAD" JAVOB BERADI



YER UCHASTKASINI DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH TARTIBI QANDAY?

— YER uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish qanday amalga oshiriladi?

— Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrdagi "Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, ko'chmas mulk obyekti egasi bo'lgan yoki ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar ko'chmas mulk obyekti bo'lgan mulk huquqi va boshqa ko'chmas mulk huquqlarining paydo bo'lishi, boshqa shaxslarga o'tkazilishi, cheklanishi va bekor qiliishi yoki ko'chmas mulk obyekti huquqiy holatidagi o'zgarishlar paydo bo'lgan kundan boshlab bir oy mobaynida mulk huquqini davlat ro'yhatiga olish uchun ko'chmas mulk obyektining huquqiy hujjatlarini davlat xizmatlari markazlariga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ilova qilgan holda va ipoteka holatida ipoteka shartnomasini ro'yxatdan o'tkazishda — ko'chmas mulk obyekti bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olishni amalga oshiruvchi organga murojaat qilishlari shart.

kodeksining 99-moddasiga muvofiq, agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-onalar o'ttasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minot uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagisi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun — to'rtdan bir qismi, ikki bola uchun — uchdan bir qismi, uch va undan ortiq bola uchun — yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to'lovning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tibor-ga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytilishi yoki ko'paytirilishi mumkin. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlar bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'lmasligi kerak.



XOTIN-QIZLARGA IJTIMOIY YORDAM

— "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga qaysi yo'nalishlarda yordam ko'satiladi?

— Vazirlar Mahkamasining 145-soni qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- ✓ Ishsiz xotin-qizlar uchun — ularning bandigini ta'minlash;
- ✓ tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlar uchun — tadbirkorlikni yo'nga qo'yishga ko'maklashish;
- ✓ boquvhisi bo'limagan ehtiyojmand xotin-qizlar uchun — bir martalik moddiy yordam berish, zarur hollarda ularning uy-joyini ta'minlash;
- ✓ ijtimoiy yordamga muhitoj i va II guruh nogironligi bo'lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhitoj ehtiyojmand xotin-qizlar uchun — bir martalik moddiy yordam berish, zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida og'ir turmush sharoitidagi (uy-joyi ta'mirlashga muhitoj, biroq oilasining moddiy imkoniyati yetmaydigan) xotin-qizlarning uy-joyini ta'minlash, bir martalik moddiy yordam berish;
- ✓ zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida og'ir turmush sharoitidagi (uy-joyi ta'mirlashga muhitoj, biroq oilasining mod-

diy imkoniyati yetmaydigan) xotin-qizlarning uy-joyini ta'minlash, tibbiy muolajaga muhitoj ehtiyojmand xotin-qizlar uchun zarur tibbiy yordamlar ko'satish;

✓ uy-joyga muhitoj ehtiyojmand xotin-qizlar uchun — ijarra kompensatsiyasini to'lash, ijtimoiy uylarga joylashtirish, uy-joy bilan ta'minlash, zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida bir martalik moddiy yordam berish;

✓ qaramog'iда nogironligi bo'lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlar uchun — bir martalik moddiy yordam berish, zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida tomorqadan va dehqonchilikdan daromad manbai sifatida foydalanan uchun ko'maklashish.



Savollarga "Madad" NNT bosh mutaxassis
Akmal OCHILOV
javob berdi

noma orqali "xarid" qilgan shaxsda ko'proq bo'ladi. Fuqarolik kodeksining 141-moddasida ishonchnomaning bekor bo'lish asoslari sanab o'tilgan. Ular orasida ishonchnoma bergan shaxsning uni bekor qilishi bilan ishonchnomaning amal qilishi bekor bo'lishi belgilangan. Yuqoridagi normadan ko'rinib turibdiki, mashina mulkdori istalgan vaqtida ishonchnomani bekor qilishi mumkin. Bekor qilish uchun notariusga borganda ham, notarius uni bekor qilishga majbur. Bunda ikkinchi tomon, ya'ni "xardor"ning roziliги talab etilmaydi. Bu holda notarius hattotki bekor qilishning sababini so'rashga ham haqli emas. Avtomototransport vositasini sotib olishda uni oldi-sotdi shartnomasi asosida rasmiylashtirishingiz hamda mazkur shartnomani notarial tartibda tasdiqlashni maslahat beramiz.



MASHINA SOTIB OLISHIM TO'G'RIMI?

— Ishonchnoma asosida avtomashina sotib olmoqchi edim. Bosh ishonchnoma asosida transport vositasini sotib olsam, menda mazkur transportga nisbatan mulk huquqini e'tirof etishda muammo bo'lamydimi? Bosh ishonchnoma bilan mashina sotib olishim to'g'rimi?

— Sizga avtomototransport vositasini sotib olayotgan paytingizda hujjatlarini rasmiylashtirishda bosh ishonchnoma asosida sotib olmaslikni tavsiya qilgan bo'lar edi. Sababi, avtomashinani xalq tilida aytildigani "Gendoverennost" orqali "yashirin sotish"ga taqiq mavjud emas. Faqat belgilangan tartib-qoidalarga rioya etilishi kerak. Biroq, bu holatda bir narsaga e'tibor bering! Avtomashinaning "texpasporti"da ism-familiyasi yozilgan fuqaro qonunga ko'ra ham, barcha bazalarda ham mashina mulkdori sifatida qolaveradi. Notariusda bosh ishonchnoma (gendorverennost) rasmiylashtirilsa ham, uni mulk huquqi tark etmaydi. Yoki bosh ishonchnoma orqali mashina "xarid" qilgan inson hali uning mulkdori sanalmaydi. Shunchaki, u avtomobilini haydashi va boshqa odarmga sotishi mumkin. Shuning uchun mashinani ishonchnoma orqali oldi-sotdi qilishi tavsiya qilmaymiz. Chunki, bu vaziyatda xatarlar avtomobilni ishonch-



MEROSXO'RLAR KIMLAR?

— Kimlar qonun bo'yicha birinchi navbatdagi merosxo'rlar hisoblanadi?

— Fuqarolik kodeksining 1135-moddasiga asosan meros qoldiruvchining bolalari (shu jumladan farzandlikka olingen bolalari), eri (xotini) va ota-onasi (farzandlikka oluvchilar) teng ulushlarda qonun bo'yicha birinchi navbatdagi vorislak huquqiga ega bo'ladilar. Meros qoldiruvchining vafotidan keyin tug'ilgan bolalari ham birinchi navbatdagi vorislak jumlasiga kiradi. Bundan tashqari, homila hotida bo'lgan, biroq hali tug'ilmanган bolalar ham merosxo'rlar hisoblanadi va merosni taqsimlash ushbu merosxo'rlar tug'ilgandan keyin amalga oshiriladi.



ALIMENT GRAFIGI BO'YICHA MA'LUMOT BERSANGIZ?

— Aliment bo'yicha oyma-oy grafigi hisobotini qanday olish mumkin?

— Majburiy ijob byurosining rasmiy "mib.uz" saytiga kirib, "Xizmatlar" bandiga o'tiladi. Shu yerdan "Alimentlar kalkulyatori" satriga kirib, aliment grafigi haqida bilishningiz mumkin. Oila

FUQARO A.I. Qibray tuman hokimligi tomonidan kompensatsiya puli to'lanmayotganidan norozi bo'lib tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

TUMAN hokimligidan KOMPENSATSIYA UNDIRILDI



Aniqlanishicha, tuman hokimining 2019-yil 11-apreldagi 752-soni qaroriga asosan fuqaro A.I.ga tegishli bo'lgan dala hovli buzilishi tushgan. Biroq, shu kunga qadar Qibray tuman hokimligi tomonidan 217 million 285 ming 54 so'm miqdordagi yetkazilgan moddiy zarar qoplanmagan.

Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 29-maydagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat va jamaat ehtiyojlar uchun yer uchastkalarini olib qo'yilishi munosabati bilan fuqarolarga va yuridik shaxslarga yetkaziladigan zararlar ni qoplash to'g'risida"gi Nizom, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-maydagi qarori bilan tasdiqlangan "Yer uchastkasi egalari, foydalananuvchilari, ijarchilari va mulkdorlarining ko'rgan zararlarini, shuningdek, qishloq va ormon xo'jaligi ishlab chiqarishidagi nobud-garchiliklarning o'rnni qoplash tartibi to'g'risida"gi Nizom, Qibray tuman hokimining 2019-yil 11-apreldagi qarori hamda Prezidentimizning 2019-yil 3-avgustdag'i "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining mulk huquqi kafolatlanishini so'zsiz ta'minlash bo'yicha qoshimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-noyabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning mulk huquqlari kafolatlarini ta'minlash hamda yer uchastkalarini olib qo'yish va kompensatsiya berish taribini takomillashtirishga doir qoshimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, bino-inshotlari va boshqa qurilmalari turgan yer maydonlari davlat va jamiyat ehtiyojlar uchun olib qo'yilishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlar natura va kompensatsiya tarzida qoplanishi kerakligi belgilangan.

Fuqaro A.I.ning murojaati o'rganilib, Qibray tuman hokimligiga yuqoridagi qonunbuzilishini bartaraf etish to'g'risida taqdimnoma kiritildi. Fuqaroga Qibray tuman hokimligi tomonidan 217 million 285 ming 54 so'm kompensatsiya puli to'lab berildi.

Jahongir ABDUSATTOROV,
Qibray tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

MAJBURIY MEHNATGA TAQIQ YANADA KUCHAYTIRILADI

HAR bir inson erkin tug'iladi va bu erkinlik mutlaqdir, ya'ni erkinlik insonning tabiiy huquqidir. Bu shuni anglatadiki, bu erkinlik inson va fuqaro umr bo'yи kafolatianishi va eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan huquqiy hujjatlarda, ya'ni Konstitutsiyada yoki qonularda mustahkamlanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini tahlil qiladigan bo'lsak, inson va fuqaroning asosiy erkinliklarni kafolatlovchi ko'plab normalarni ko'rishimiz mumkin. Yaxshisi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ko'rib chiqaylik: Bosh qonunimizda yashash huquqi (24-modda); erkinlik va shaxsiy-daxilsizlik huquqi (25-modda); qyinoqlar, zo'ravonlik, shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamtsituvchi muomalladan himoyalanish huquqi (26-modda); shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalanish huquqi (27-modda); erkin harakatlanish huquqi (28-modda) aks etgan.

Majburiy mehnatdan himoyalanish huquqi ham insonning tabiiy huquqlaridan biri bo'lib, majburiy mehnatni taqiqlash amaldagi Konstitutsiyamizning 37-moddasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'satilgan boshqa hollardan tashqari maj-

buriy mehnat taqiqlanadi.

MAJBURIY MEHNAT DEGANDA NIMA TUSHUNILADI?

Amaldagi Mehnat kodeksida (7-modda) majburiy mehnat deganda "biron-bir jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali (shu jumladan mehnat intizomini saqlash vositasi tariqasida) ish bajarishga majburlash"ni tushunish mumkin.

Biroq, yuqoridagi ta'rif haqiqatan ham majburiy mehnat tushunchasini to'liq anglatadimi yoki uning boshqa element ham bormi?

Xalqaro mehnat tashkilotining 1930-yildagi "Majburiy mehnat to'g'risida"gi Konvensiyani mavjud. Ko'satilgan Konvensiya Oliy Majlisning 1997-yil 30-avgustdag'i "Zorlab ishlatalish yoki majburiy mehnat to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilingan va u O'zbekiston Respublikasi uchun 1992-yil 13-iyuldan kuchga kirgan.

Ushbu Konvensiyaning 2-moddasiga binoan "zo'raki yoki majburiy mehnat" atamasini ixtiyoriy ravishda o'z xizmatlarini taklif etmagan har qanday shaxsdan har qanday jazolash tahdidi ostida talab qilinadigan har qanday ish yoki xizmatni anglatadi.

Demak, quyidagi xulosaga kelish mumkin: mehnat majburiy deb tan olinishi uchun ikkita shart mavjud bo'lishi kerak: ish beruvchi tomonidan jazo tahdidi bo'lishi kerak; xodim tomonidan o'z xizmatlarini ixtiyoriy ravishda taklif qilish bo'lmasligi kerak (oddiy so'z bilan aytganda, xodim buyurilgan ishni bajarishni xohlamaganda).

Quvonralisi, qonun chiqaruvchining nazaridan chetda qolgan ikkinchi element, ya'ni xodim tomonidan o'z xizmatlarini ixtiyoriy ravishda taklif qilish bo'lmasligi 2023-yil 30-aprelda kuchga kiradigan yangi Mehnat kodeksida tuzatilgan bo'lib, uning 5-moddasiga ko'ra "majburiy mehnat bior-bir jismoniy shaxsdan jazoni qo'llash tahdidi ostida talab etiladigan, bajarilishi uchun ushu shaxs ixtiyoriy ravishda o'z xizmatlarini taklif qilinagan har qanday ishni yoki xizmatni anglatadi" deb ta'kidlanigan.

Bugungi kunda majburiy mehnatni taqiqlash masalasi butun dunyoda dolzarb masala hisoblanadi. Bu illatning yangi ko'rinishlari ko'plab mamlakatlar hukumatlarini majburiy mehnatga qarshi kurashish va unga barham berishning yangi usullarini izlashga majbur qilmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida majburiy mehnat masalasini huquqiy tartibga solishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Endilikda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasining 44-moddasiga muvofiq majburiy mehnatga taqiq yanada qat'iylashtirilishi kutilmoqda. Ushbu moddaga ko'ra, sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. Bolalar mehnatinining bolaning sog'lig'i, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'llim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi.

Xumoyun SOYIVOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

Tadbirkor

HUQUQI TIKLANDI

2019-YIL 13-may kuni Rishton tuman hokimining 2852-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda bir nechta tadbirkorlarning tuman markazida joylashgan bino-inshotlari buzilib, yerlari davlat va jamaat ehtiyojari uchun olinishi belgilanadi. Ammo tadbirkor Matlubaxon Topiboldiyevaning Roshidoni ko'chasiда joylashgan savdo do'koniga yuqoridagi qaror ilovasiga kiritilmagan bo'lsa-da, buzib yuboriladi. Oqibatda unga bino-inshotlar uchun tegishli kompensatsiya ham to'lanmagan.

Shu bois, M. Topiboldiyeva tuman hokimligining harakatidan norozi bo'lib, Farg'onan tumanlararo ma'muriy sudiga murojaat qiladi. Natijada sudning 2022-yil 19-dekabrdagi hal qiluv qarori bilan Rishton tuman hokimligi mas'ul xodimlarining xatti-harakatlari qonunga xilof deb topilib, hokimlik zimmasiga Matlubaxon opaga tegishli savdo do'konining bozor bahosi 2019-yil may oyi holatiga 191 million 128 ming 330 so'mni tashkil etgan.

Shundan so'ng tadbirkor ayol kompensatsiya pulini undirishda amaliy yordam so'rab, Rishton tuman adliya bo'limiga murojaat qildi. Binobarin, adliya bo'limi tomonidan uning manfaatini ko'zlab, fuqarolik ishlari bo'yicha Rishton tumanlararo sudiga da've ariza kiritildi. Pirovardida sud Rishton tuman hokimligidan Matlubaxon Topiboldiyeva foydasiga 191 million 128 ming 330 so'mni undirish yuzasidan hal qiluv qarori qabul qildi.

Murodjon QODIRALIYEV,
Rishton tuman adliya bo'limi boshlig'i

6 KO'ZGU


MA'MURIY islohotlarning navbatdagi bosqichini amalga oshirish maqsadida 2023-yil 25-yanvarda Prezidentimizning "Respublika ijro etuvchi hokimiyyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni imzolandi. Mazkur farmoning 3-ilovaning izoh qismi "d" bandida "Vazirliklar huzuridagi qo'mitalar, agentliklar va inspeksiyalar markaziy apparati va ularning hudo-diy va tuman bo'linmalari xodimlari uchun mehnatga haq to'lash razryadlari tegishlicha vazirlik markaziy apparati xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash razryadlaridan bir pog'ona past miqdorda qo'llaniladi", deyilgan.

Shunga ko'ra, agar vazirlik xodimlarining razryadlari o'zgartmasa va hozirgidek ko'rinishda qolsa, demak, uning tarkibiga kiruvchi davlat organi (masalan, ba'zi qo'mitalar, agentliklar) xodimlarining razryadlari bir pog'onaga pasayadi. Va ish haqi ham kamayishi mumkin.

Amaldagi Mehnat kodeksining 88-moddasiga muvofiq, "Mehnat shartlarini o'zgartirish, ular qaysi tartibda belgilangan bo'lsa, shunday tartibda amalga oshiriladi". Ya'ni, agar xodimning razryadli ish haqi miqdori shtat jadvali va mehnat shartnomasi bilan belgilangan bo'lsa, demak, ish haqining kamayishi ham shtat jadvaliga, ham mehnat shartnomasiga o'zgartirish kiritish tartibida amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, umumiyo vaziyatlarda xodimlarning ish haqi miqdori kamayadigan bo'lsa, albatta, bu ular bilan kelishilgan holda, ularning roziligi bilan amalga oshirilishi kerak.

Endi mana bu normaga e'tibor bering. Amaldagi Mehnat kodeksining 89-moddasida "ish beruvchi xodimning roziligidan mehnat shartlarini o'zgartirishga faqat texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, ishlar (mahsu-

ISH HAQI OSHSA - E'TIROZ YO'Q, kamaysa - muammo ko'p...



lot, xizmatlar) hajmining qisqarganligi, basharti bunday o'zgarishlar xodimlar soni yoki ishlar xususiyatining o'zgarishiga olib kelishi oldindan aniq bo'lgan hollardagina haqlidir," degan qoida bor.

Bu qoidaga muvofiq agar xodimlarning mehnat shartlari (jumladan, ish haqi) masalan, mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar tufayli o'zgarayotgan bo'lsa va agarida bu

shartlar ish hususiyatinining o'zgarishi-ga ham sabab bo'lsa, ish beruvchi mehnat shartlarini xodimning roziligidan o'zgartirishga haqli. Faqat buning uchun Mehnat kodeksining 89-mod-dasi uchinchiligi qismiga muvofiq, ish beruvchi mehnat shartlaridagi bo'lajak o'zgarishlar (masalan, ish haqining kamayishi) haqidagi xodimni kamida 2 oy oldin yozma ravishda ogohlantirib, tilxat olishi shart. Agar

jarayon ogohlantirishsiz amalga oshiriladigan bo'lsa, bu noqonuniga hisoblanadi.

Yana bir muhim talab bor, Mehnat kodeksining 89-moddasi beshinchi qismiga asosan ko'pchilik xodimlar guruhi uchun mehnat shartlari no-qulay tarzda o'zgargan taqdirda, ish beruvchi mahalliy mehnat organiga bunday o'zgartirishlarning sababi haqida ma'lumot berishi shart.

E'tibor qilgan bo'lsangiz, davlat organlaridagi xodimlarning razryadi va ish haqi tushiriladigan bo'lsa, bu albatta, ko'pchilik xodimlar uchun no-qulay o'zgarish hisoblanadi. Bunday holatlarda ish beruvchi o'zgarishlar haqida Aholi bandligiga ko'makla-shish markaziga ma'lumot taqdim etib, shunday keyingina bu o'zgarishlarni amalga oshirishi to'g'ri bo'ladi.

Nodirjon SHOIMOV,

Boysun tuman yuridik xizmat ko'sratish markazi boshlig'i

BUXORO shahrida joylashgan ta'lif muassasalarida faoliyat yurituvchi kutubxonachilarining ularga to'lanilishi lozim bo'lgan ustama to'lovlarini to'lanmayotganidan norozi bo'lib qilgan murojaati viloyat adliya boshqarmasi xodimlari tomonidan qonun doirasida o'rganib chiqildi.

Kutubxonachilar

USTAMASIZ QOLGAN



Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-sentabrdagi "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash shartlarini tartibga solish to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan nizomning 23-bandida maktablar, barcha tur va nomdag'i maktab-internatlar, o'rta maxsus va hunar texnika o'quv yurtlari kutubxonachilariga yoki boshqa xodimlarga darsliklarning kutubxona fondi bilan shug'ullan-ganliklari uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3,6 foizi miqdorida qo'shimcha haq to'lanishi, keyingi har bir 1 ming 500 nusxa darslik uchun 5 foiz, biroq mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 10,6 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda qo'shimcha haq to'lanishi ko'rsatilgan.

O'rganish natjisasiga ko'ra, fuqarolik ishlari bo'yicha Buxoro tumanlararo sudiga da've arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan ta'lif muassasalarining 6 nafar kutubxonachisiga 21 million 100 ming so'm miqdoridagi qo'shimcha to'lov to'lanishi belgilandi.

Halim FARMONOV,
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

E'LONGAR

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 13-martdag'i 5/2023-sen yig'ilish bayoni hamda adliya boshqarmasining 2023-yil 14-martdag'i 67-um-son buyrug'i bilan Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 22.04.2020-yilda Bekobod shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius X. Normatovaga berilgan TS 0047-raqamli lit-senziyaning amal qilishi 2023-yil 17-mart kundan 15 kun muddatga to'xtatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 13-martdag'i 6/2023-sen yig'ilish bayoni hamda adliya boshqarmasining 2023-yil 14-martdag'i 68-um-son buyrug'i bilan Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 20.04.2020-yilda Bo'stonliq tumani xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Z. Duyusenova berilgan TS 0018-raqamli lit-senziyaning amal qilishi 2023-yil 18-mart kundan 15 kun muddatga to'xtatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 13-martdag'i 7/2023-sen yig'ilish bayoni hamda adliya boshqarmasining 2023-yil 14-martdag'i 64-um-son buyrug'i bilan Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 20.04.2020-yilda Zangiota tumani xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius T. Saidoboyevga berilgan TS 0053-raqamli lit-senziyaning amal qilishi 2023-yil 18-mart kundan 15 kun muddatga to'xtatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 13-martdag'i 8/2023-sen yig'ilish bayoni hamda adliya boshqarmasining 2023-yil 14-martdag'i 65-um-son buyrug'i bilan Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 20.04.2020-yilda Zangiota tumani xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius D. Nosirovaga berilgan TS 0011-raqamli lit-senziyaning amal qilishi 2023-yil 16-mart kundan 15 kun muddatga to'xtatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 13-martdag'i 9/2023-sen yig'ilish bayoni hamda adliya boshqarmasining 2023-yil 14-martdag'i 65-um-son buyrug'i bilan Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 14.12.2021-yilda Oqqo'rg'on tumani xususiy amaliyot bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya hamda Marxamat tumani "MAR-XAMAT ADVOKATLARI" advokatlik firmasining advokat Sharipov Rafiqjon Abdumannobovichga 2018-yil 26-dekabrda AN 000198 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va advokatlik maqomini tugatildi.

xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius J. Norqulova berilgan TS 0089-raqamli lit-senziyaning amal qilishi 2023-yil 15-mart kundan 15 kun muddatga to'xtatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 13-martdag'i 10/2023-sen yig'ilish bayoni hamda adliya boshqarmasining 2023-yil 14-martdag'i 67-um-son buyrug'i bilan Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 19.03.2020-yilda Bekobod shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Z. Mamatkarimovga berilgan TS 0088-raqamli lit-senziyaning amal qilishi 2023-yil 1-aprel kundan 1 oy muddatga to'xtatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 13-martdag'i 11/2023-sen yig'ilish bayoni hamda adliya boshqarmasining 2023-yil 14-martdag'i 61-um-son buyrug'i bilan Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 21.04.2020-yilda Bekobod tumani xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius D. Shaxmayevga berilgan TS 0033-raqamli lit-senziyaning amal qilishi 2023-yil 14-mart kundan 1 oy muddatga to'xtatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 13-martdag'i 12/2023-sen yig'ilish bayoni hamda adliya boshqarmasining 2023-yil 14-martdag'i 63-um-son buyrug'i bilan Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 20.04.2020-yilda Piskent tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sh. Islobekova berilgan TS 0024-raqamli lit-senziyaning amal qilishi 2023-yil 15-mart kundan 15 kun muddatga to'xtatildi.

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 15-martdag'i 61-um-son buyrug'i ga asosan Andijon shahar "Huquq himoyachisi" advokatlik byurosi advokati Urinbayeva Shoira Xonga 2018-yil 25-dekabrda berilgan AN 000184 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya hamda Marxamat tumani "MAR-XAMAT ADVOKATLARI" advokatlik firmasining advokat Sharipov Rafiqjon Abdumannobovichga 2018-yil 26-dekabrda AN 000198 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va advokatlik maqomini tugatildi.

 SUHROB Kattayev (ism-shariflar o'zgartirilgan)
o'ttiz besh yoshiga qadar chirolyi yashab, ikki nafar farzandini halol mehnat bilan boqib kelayotgandi.
Ammo...

TUBANLIK

yoxud ayolga "aylangan" erkak makri



Hammasi oilasiga xiyonat qilib, bir ayolga ilakishib, u bilan ko'ngilxushlik qilishdan boshlandi. Mast-alast holda, qattiq u lab qolgan Suhrob tongda uyg'onib, telefonidagi simkartasining bittasi va elektron hamyonni (plastik kartochkasi) yo'qolib qolganini bildi. Bo'l ish bo'ldi, deb yo'qolgan simkartasiga va plastik kartochkasi "ta'qiq" qo'yish haqida ham o'yalamadi. Ammo kutilmaganda, oradan bir necha kun o'tgach o'sha "mahbuba"si telefon qilib, unga zudlik bilan 1 million so'm pul topib kelishi, aks holda uning o'sha tundagi ochiq, o'ta maxfiy holatdagi suratlari internet tarmoqlari orqali tarqatib yuborishini aytib qo'rqtidi.

"Ayolning makri shu bo'lsa kerak-da", degan o'y bilan uchrashuvga kelishilgan manzilga yetib kelgan Suhrob undan yo'qolgan plastik kartochkasi va sim kartasini so'raydi. "Kartochkam bilan simkartamni qaytarasan, keyin aytgan pulinigini olasan," degan gapiga "Hali shoshmang, simkartangizga profil ochgamman, ancha foydalanishim kerak, keyin berman." deya javob beradi ayol. Shu tariqa qarmoqqa tushgan Suhrob yana ikki-uch marotaba bu ayolga xuddi shunday "to'lov" to'lab yurdi.

Oradan uch oy o'tib simkarta hamda plastik kartasini olgan erkak endi havoga sovurligan pullarini qaytarib olishni o'lay boshladi. G'araz niyati yo'lida internet tarmogida "Iroda" deya akkaunt ochib, turli kishilar bilan yozishib yurdi. Uning maqsadi birorta puldor bilan yaqidan tanishib, undan pul undirish edi.

Ota-onasi, oilasi uchun bir necha yillardan buyon Koreya davlatida ishlab kelayotgan O'limas Salimov "Iroda"ning qarmogiga ilindi.

Ancha vaqt telegram kanali orqali suhbatlashib, "do'stlashib" va "yaqin kishi"lardan biriga aylangan "Iroda" aslida tuban edil. U turli xiyla-nayranglar bilan O'limasning oilasi, yaqinlari haqidagi ma'lumotlarni bilib oldi. Bu "shirinso'z ayolga" yaxshi niyat bilan o'z qalbini ocha boshlagan O'limas "Bu ayol mening onajonim" deya onasining suratini tashlaydi. O'z suratini esa boshqacha orzular va tasavvurlar bilan tashlagan yigit tuzoqqa ilingen edi.

Musofir yurtda yurgan yigit o'z yurdoshi tomonidan bu tarzda talanishi, tadtidga olinishi haqida yetti uxbab tushida ham ko'rмаган. Ammo "Zudlik bilan 300 AQSh dollarari yubormasang, bu yalang'och suratlaring ijtimoiy tarmoqlarda parvoz qiladi"... degan tadtiddan hushyor tortadi. Go'yoki tani-shimning nomiga deb o'zining pasport ma'lumotlarni unga yuborib, pul tashlashni so'ragan olg'ir ta'magir 300 AQSh dollarini qo'lg'a kiritadi. O'zi kompyuter programmasidan foydalaniib, "ixtiro" qilgan uyatlari suratlarni internetga joylashtirish tahdidi bilan O'limasdan 3 ming 700 AQSh dollarini o'zlashtiradi. Bu voqeadan xabar topgan O'limasning onasi G. Salimova ichki ishlar idorasiga murojaat qilishga majbur bo'ladi.

Shu orada S. Kattayev, ya'ni "Iroda", O'. Salimov va uning onasi G. Salimova-larga tegishli bo'lgan suratlarni sharmsiz holatga keitirib, ostiga axloqqa zid bo'lgan so'zlarni yozib, internet tarmog'i orqali bir necha guruhlarga tarqatib yuboradi. U o'z harakatlari bilan jabrlanuvchi va uning yaqin kishilar uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib, mulkiy manfaatlar olish, pornografik mahsulotni tarqatish va namoyish etish maqsadida internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish orqali shaxsnинг sha'ni va qadr-qimmatini bedoblik bilan qasddan tahqirlash kabi jinoyatlarga qo'l urchanadi.

Sud tomonidan S. Kattayev Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan aytib deb topildi va unga qonunda belgilangan tartibda ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Akrom ARIPOV,
Oliy sud bosh konsultanti

Deyarli har kuni avtohalokat bilan bog'liq hodisalar haqidada o'qiyimiz, eshitamiz yoki tasodifan shunday voqealarning guvohi bo'lamiiz. Yo'l-transport hodisalarini oqibatlarini ko'rib, sergak va hushyor tortamiz ham. Ammo bularning bari biz uchun lahzalik holatdek o'tadi-ketadi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay, hammasini unutamiz. Hatto hushyorlikni ham. Aslida avtoavariyalarning asosiy sababi ham hushyorlikni yo'qotish emasikan?!



o'zgaga ziyon yetkazmang!

Kimlارadir ishonib, mas'uliyatni unutib, hujjatsiz rulga o'tiradiganlar, yo'l qoidalarini mensimaydiganlar, yo'l-patrol xizmati xodimlarining ishorasiga bo'y sunmaydiganlar avval ham bor edi, bugun ham yo'q emas. Yo'l-transport hodisalarining aksari shunday tufayli sodir bo'layotgani ham ayni haqiqat. Bundaylarning kasofati faqat o'ziga ursa mayli edi, ularning kasriga begunoh insonlarning ham umri xazon bo'layotgani achinarli hol.

Bugun sizga hikoya qilmoqchi bo'lganimiz ham ayanchli yo'l-transport hodisasi bilan bog'liq holat. Asror (ismlar o'zgartirilgan) "Matiz" avtomashinasida poytaxt bo'y lab yo'lga chiqdi. Balki, biron-bir yumush bilandir, yo yo'lovchilarning uzog'ini yaqin qilib to'rt-besh so'm ishlaqmoqchi bo'lgandir. U chorrahaga yaqinlashganda, svetoferning qizil chirog'i yonganini payqamay qoldimi, to'xtashni istamadimi, mashinaning tezligini pasaytirmsandan, harakatlanishda davom etdi.

Shu paytda yo'l qoidasiga amal qilib, boshqa yo'naliishdan harakatlanib kelayotgan mashina bexosdan Asrorni yo'naliishiga burildi. Asror endi to'xtamasa yoki yo'naliishni o'zgartirmasa, avtovariya qiliishi shubhasiz bo'lib qoldi. Hayajondanmi, qo'rquvdamni, Asror mashina chambaragini keskin burdi. Burilgan yo'naliishini hali to'liq ko'rbi ulgurmaysidan, piyodalar o'tish yo'lqidan o'tib borayotgan ona va bolani borib urchanini ko'rdi...

Tez yordam va shifokorlar tomonidan ko'satilgan birinchi tibbiy yordam ham, muolajalar ham bolanining hayotini saqlab qolmadidi. Hayoti saqlab qolning ona esa endigina besh yoshga to'lgan o'g'lining ismini aytib chor tarafga ittiloji boqadi...

Sud jarayonida ma'lum bo'lilchicha, Asror bir yil avval avtomobil boshqarish huquqidan mahrum qilingan. U mashinani hujjatsiz boshqarib yurgen. U o'z aybini tan olish asnosida otasiga haydovchiligi guvohnomasini qaytarib oglani to'qrisida yolg'on gapirib, mashinani qo'lg'a kiritganini, kutilmaganda bu mudish hodisaning ro'y beriganini afsus va nadomatlardan bilan gapirar ekan, soddan jazo tayinlashda yengillik so'radi.

Marhum bolanining ota-onasi esa o'zini qo'yarga joy topolmaydi. Goh bir-biriga dalda bergandek bo'ladi, goh aybording bu qilmishini hech narsa bilan oqlab bo'lmasligini aytib, dod-faryod qiladi.

Qonun barchaga barobar. Asrorga ham tegishli jazo tayinlandi. Aslida jazoning qandayligi muhim emas, muhim, sodir etilgan hodisadan to'g'ri xulosa chiqarish. Bizning ham bu voqeani yoritishdan maqsadimiz yo'l harakati qoidalariga bo'y sunmaslikning oqibati yaxshilik bilan tugamasligini yana bir bor yodga solib qo'yishdir.

Inson-ku inson, yo'llarda biron bir hayvon yoki parranda, boringki, hech bir jonzotga shikast yetkazishga haqqimiz yo'q! Shunday ekan, avtomobil boshqarayotganda hushyorlikni yo'qotmaylik!

Yorbek ISKANDAROV,
"Inson va qonun" muxbirini

8 ADABIY AYVON

O'sha kuni, kechiga yaqin Guinnar do'koni yonida to'xtab, u yerga yangi kelgan baliq ovlash asboblarini tomosha qilish uchun kirgan edim. Uch qavatlari, hamisha molga liq to'la bu do'kon shahardagi eng yaxshi supermarket bo'lsa kerak. Undagi antiqa mollar kishi aqlini shoshiradi. Birgina baliq ovi, umuman, ovda asqtodigan ashyolarni tomosha qilishning o'ziga indamay bir-ikki saat vaqtinigiz ketib qoladi. Agar shahardan tashqarida dam olishni xush ko'rsangiz, o'sha do'konga bir kirib o'tishni maslahat bergen bo'lardim.

Men yopiq oynavand shkafdag'i ehrom shaklida terib qo'yilgan sochma o'qlarni tomosha qilayotgan edim. Shunda menga orqa o'girib turgan kishining peshtaxtadagi zalvorligina, stolda turadigan zajigalkani olib, hech narsa bo'lmaganday yomg'irpo'shining cho'ntagiga solib qo'yganiga ko'zim tushdi. Yaqin o'rta da sotuvchi ham, mendan boshqa xaridor ham yo'q edi. Menimcha, u oynavand shkafdag'i aksini kuzatib turganimni sezmadim.

G'alati ahvolda qoldim. To'g'ri, o'zim ham bolalikda arzongarov rastalaridan qalam, to'g'nog'ichga o'xshash mayda-chuydalar o'g'irlagan paytlarim bo'lgan. Lekin hozir umrimda birinchi marta rostmana o'g'irlikka guvoh bo'lib turardim.

Zajigalka yetmish besh dollar tura-di, buni aniq bilaman. Chunki uni sal oldin o'zim ham qo'llimga olib, ishxonam yoki uyimdag'i stolimda qan-day turishini tasavvur qilib ko'rgan edim. Lekin oilali odamman, bunaqa hashamatni cho'ntagim ko'tarmaydi. U haqiqatan ham antiqa yasalgan edi: ritsarlar dubulg'asi shaklida bo'lib, o'rkachi bosilsa dubulg'aning oldi niqobi ko'tarilib, ritsar og'zidan olov purkardi. Bunaqa ritsarlar peshtaxtada jips bo'lib saf tortib turar edi. Ulardan birini cho'ntagiga tiqqan kishi lift tomon ketgach, lashkar safi siyrak tortib qolganday bo'ldi.


Agar o'ylash uchun ozgina fursat bo'lganda, ehtimol, bu o'g'irlikdan ko'z yumgan bo'larmidim. Mening nima ishim bor? Bunaqa ko'ngilisziliklarga bosh suqib nima qildim? Ammo shu payt oldimda "nima xizmat" degan-day yoshgina sotuvchi yigit paydo bo'ldi.

Men lift tomonga ishora qildim.

– Yashil plashdag'i anavi odamni ko'rayapsizmi? U hozirgina manavi zajigalkalardan bittasini cho'ntagiga solib ketdi.

– O'g'irlab oldi demoqchimisiz? –

Ulford CHARLZ



deyarli shivirlab so'radi u mendan.

– Men bunday demadim, faqat u manavi matohdan bittasini cho'nta-giga solib lift tomonga ketdi, dedim.

Sotuvchi sekin yo'talib olib, dedi:

– Bilasizmi, janob, bu mening vazifamga kirmaydi. Siz bo'limizmiz boshqaruvchisi janob Livayn bilan gaplashib ko'rmysizmi?

Yelkamni qisib qo'ydim, ichim uvushdi. Bekor qildimov. Endi istasam-istamasam bu yoqimsiz mashmashada ishtirot etishimga to'g'ri keladi.

Sotuvchi tezda qirq yoshlardagi past bo'yli, taqirbosh janob Livaynni ergashtirib keldi. Men ikki og'iz gap bilan unga bo'lgan voqeani aytib berdim. Livayn labini qisib, meni diqqat bilan tingladi. So'ng ishonch hosil qilish uchun bo'lsa kerak, peshtaxtadagi ritsarlarni sanagan bo'ldi, oynavand shkaf oldiga turib undagi aksdan suvenirlar bo'limini ko'rish mumkinliginiy tekshirib ko'rdi.

– Siz, janob...

– Goranovski.

– Janob Goranovski, agar o'g'irlik sodir bo'lgani aniqlansa, sudda guvohili bera olasizmi?

– Nimalar deyapsiz? Men sizga uning zajigalkani yashirinchaga cho'ntagiga solganini aytib turibman-ku. Yonini tintib ko'rsangiz kifoyamasimi?

– Bu siz o'ylaganchalik oson ish emas, janob, – dedi Livayn va ha-yajondan qaltilrab turgan sotuvchiga yuzlandi. – Janob Saylioni bu yoqqa chaqir.

Sotuvchi yugurgilab ketdi, boshqa-



ruvchi esa qo'llarini qovushtirib, men-ga past ovozda, salmoqlab tushuntira boshladidi:

– Hozir do'kon qo'riqlash xizmati boshlig'i Saylioni chaqirib kelishadi. Janob Goranovski, hushyorligingiz va befarq emasligingizdan min-natdormiz, albatta. Lekin bilasizmi, do'konimiz xaridorlarini asossiz tintuv o'tkazishga bizning haqqimiz yo'q. Atrofda sotuvchi yo'q edi, deb o'zin-giz aytib turibsiz. Ehtimol, o'sha janob sotuvchini izlab ketgandir.

Ensam qotdi.

– Ana bo'lmasa! Qavatma-qavat yurib sotuvchini qidirganda-a?

– Hamma narsa bo'lishi mumkin, – davom etdi Livayn. – Qonunga ko'ra, kishi oлgan narsasi uchun pul to'lamay do'kondan tashqariga chiqqanidan keyingina uni o'g'irlagan hisoblanadi.

– Tushunarli. Nimayam derdim, unda bu haqda unuta qolamiz. Bekor ga vahima qilgan ekanman.

– Yo'q-yo'q, sizga vaziyatning qonuniy tomonlarini tushuntirdim, xolos. Bizga yordamingiz juda kerak bo'ladi. Odatda janob Guinn o'g'irilarni sud ixtiyoriga topshiradi. Tayinli guvohlar-siz ishni sudga oshirib bo'lmaydi. Agar uni do'kon ichida hibsga oladi-gan bo'lsak, u chiqishidan oldin pul to'lamoqchi bo'lganini aytib turib olishi mumkin, hech narsani isbotlay olmaymiz. Bunaqa mijozi lar ishonchini yo'qotishimiz ham mumkin. Bu shov-shuv ko'tarishga arziydimi?

– Nima derdim, agar ish sudgacha boradigan bo'lsa, menga ishonishin-

giz mumkin. Ilgariyam sudda guvohlik bergen paytlarim bo'lgan.

Shu payt janob Saylio yetib kel-di. U qotmadan kelgan, qoramag'iz, bank xodimilariiga o'xshab ketadigan ko'rimli kishi ekan. Tezda ishni zimmasiga oldi. Menga lift oldida turib, o'sha odam paydo bo'lishi bilan belgi berish vazifasi tayinlandi. Janob Livayn asosiy yo'lakka, qorovulboshi esa chiqish eshigi oldiga borib turdi. U bunaqa ishning tahsilini oлgan ko'rindi. Yosh sotuvchini esa yana peshtaxtalar oldiga qaytarishdi.

Betoqat bo'la boshladim, bari tezroq tugasa-yu'ketsam. Soatga qarasam, o'g'irlikdan beri endi o'n daqqaq o'tibdi. Sabr bilan kuta boshladik. Nihoyat, lift eshigi ochilib, yashil plashdag'i novcha kishi yo'lakka chiqdi. Kelishilganiday, qo'llim bilan ishora qildim va uning orqasidan tushdim. Birdan miyamga quronlanmaganimikan, degan o'y kelib beixtiyor qadamim sustlashdi. O'g'ri chiqish eshigi tomon ketayotgani aniq bo'lgach, oynavand eshik tavaqasidan ja-nob Saylioga qaradim. U eshikdan chiqqan joydag'i yo'lakda, go'yoki tamaki qutisini tozalash bilan ovora edi. Zum o'tmay qorovulboshi va boshqaruvchi yashil yomg'irpo'shadi kishini do'konga qaytarib olib kirishdi.

Men o'g'riga chiqqargan kishining kulib turishidan o'zimni yo'qotib qo'ydim. Uning katta burni ustini sklerozdan dalolat beruvchi mayda tomirlar bosib ketgan, siyrak tishlari katta og'zini yanayam katta qilib ko'rstar edi.

– Ma'zur tutasiz, janob, – dedi sovuq ohangda, qdobni saqlab qorovullar boshlig'i. – Mana bu janob peshtaxtadan zajigalka oлganingizni, lekin uning pulini to'lamaganingizni aytmoqda.

Saylioning bir gap bilan mas'uliyatni zimmamga ilib yuborganiga, to'g'risi, jahlim chiqdi. Yashil plashli naynov yelkasini qisib, so'ng aybdorona ijayib qo'ydi. Uning menga qadalgan ko'k ko'zlaridagi nafrat va istehzodan ichim muzlib ketdi.

– Nahotki? – dedi u so'niq kulgi bilan. – Sizlar manavi zajigalkani aytapsiz shekilli? – O'g'ri cho'ntagidan xromlangan ritsarni chiqardi.

– Ha, bu o'sha, – tasdiqladim yelkamdan tog' ag'darilganday bo'lib.

U plashi tugmalarini yechib, cho'ntakalardan bir nima qidira boshladi.

Rus tilidan Shavkat YODGOROV tarjimasi

Davomi keyingi sonda.